



TYUTORNING O'QUV-ISH REJASI VA UNI ISHLAB CHIQISH TEXNIKALARI

Muxammadjonova Madinabonu Isroiljon qizi

FarDU Pedagogika nazariyasi va tarixi mutaxassisligi 1-kurs magistranti
madinabonumuhhammadjonova07@gmail.com

Annotatsiya Bu maqolada tyutorlik bilan shug'ullanayotgan kadrlarning ish reja na'munasi, uning tuzish tartibi va talablari, ishlab chiqish texnikalari hamda ish faoliyati davomida amal qilishi kerak bo'lgan bir nechta vazifalar keltirilgan. Tyutorlik faoliyatini sifatli tashkil etish va yuritish maqsadida har bir tyutor o'z ish rejasiga ega bo'lishi hamda talabalar bilan ishlash jarayonida interfaol metodika va texnikalardan foydalanishi tavsiya etiladi.

Key words: tyutorlik tizimi, ish reja, hujjatlar, metodlar, texnikalar, foydalanish algoritmi, hamkorlik

УЧЕБНОГО ПЛАНА ТЮТОРА И МЕТОДИКА ЕГО СОЗДАНИЯ

Аннотация В данной статье представлен примерный план работы по обучению персонала, порядок и требования к его составлению, а также ряд задач, которые необходимо соблюдать во время работы. Для того, чтобы качественно организовать и провести репетиторскую деятельность, каждому тьютору рекомендуется иметь собственный план работы и использовать интерактивные методы и приемы в процессе работы со студентами.

Ключевые слова: система обучения, план работы, документы, методы, приемы, алгоритм использования, сотрудничество

TUTOR'S STUDY PLAN AND TECHNIQUES FOR ITS CREATION

Abstract This article presents a sample work plan for tutoring personnel, the procedure and requirements for its preparation, and several tasks that must be followed during work. In order to organize and conduct tutoring activities in a high-quality way, it is recommended that each tutor have his own work plan and use interactive methods and techniques in the process of working with students.

Key words: tutoring system, work plan, documents, methods, techniques, usage algorithm, cooperation



KIRISH

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 27-fevraldag'i "Pedagogik ta'lif sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4623-son Qarorida pedagogik qo'llash ko'nikmalariga ega, mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda munosib hissa qo'shuvchi yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash uchun professional pedagog kadrlar yetkazib berish, sohaga ilg'or ta'lif texnologiyalarini joriy qilish kerakligi asosiy maqsad ekanligi qayd etilgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida oliy ta'lif tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son Farmonida ham ushbu mavzu yuzasidan fikrlar yuritilib, bir qancha ustuvor vazifalar belgilab berilgan. Hozirgi kunda oliy ta'lif tizimiga "tyutorlik faoliyati" ning ham yo'lga qo'yilgani yuqoridagi vazifalarning natijasi bo'lmoqda desak bo'ladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Tyutor o'z faoliyatida amaldagi qonun hujatlari, oliy ta'lif muassasasi ichki tartib va odob-axloq qoidalari hamda ushbu nizomga rioya etadi. Agar tyutor ta'lif muassasasi tomonidan tyutor etib belgilanmagan shaxs hisoblansa va belgilangan me'yor hamda talablarga javob bermaydigan, bilim va tafakkur doirasi tyutorlik kasbiga munosib bo'limgan mutaxassis bo'lsa tyutorlik faoliyatini amalga oshirishga yo'l qo'yilmaydi. Ta'lif muassasalarida tyutorlar faoliyatiga umumiy rahbarlikni Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha prorektor (o'rnbosar) amalga oshiradi.

Tyutorlik faoliyatining asosiy maqsadlari quyidagilar hisoblanadi:

- ta'lif va tarbiya jarayoni uyg'unligini samarali tashkil etish;
- ta'lif muassasasi va talabalar o'tasidagi munosabatlarni tartibga solish;
- talabalarga ijtimoiy-ma'naviy va psixologik yordam ko'rsatgan holda o'zini yanada yaxshiroq anglash, o'qish va hayotda to'g'ri qaror qabul qilish, tanlagan kasbiga muhabbatni oshirish;
- ta'lif muassasalaridagi ta'lif-tarbiya jarayoni samaradorligini oshirish, o'quvchilar davomatini yaxshilash bilan bog'liq masalalarda Jamoat kengashi va mahallaning o'rnini kuchaytirish;
- talabalarning dars mashg'ulotlarini o'zlashtirib borishini tahlil qilish va darsdan bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazishlarini ta'minlash;
- ularning ijtimoiy (oilaviy) holatidan doimiy xabardor bo'lishdan iborat.²⁸

²⁸ Osnovi tyutorstva: kurs leksiy [Elektronniy resurs]: uchebnoye posobiye dlya studentov visshix uchebnix zavedeniy / N. V. Shramko; Ural. gos. ped. un-t. – Elektron. dan. – Yekaterinburg: [b. i.], 2018.



Ta'limda tyutorlik faoliyatini amalga oshirish quyidagi bosqichlar shaklida taqdim etilishi mumkin:

- 1) diagnostika;
- 2) motivatsion;
- 3) amalga oshirish;
- 4) analitik.

Bosqichlarning har biri tyutorlik faoliyatining ta'limda aniq muammolarni hal qilishga qaratilgan.²⁹

ASOSIY QISM

Har bir kasb singari, tyutorlikni ham ma'lum bir reja asosida tashkillash va unga muvofiq ish yuritish, kadrning nafaqat tartiblilik, malakalilik va tizimlilik sifatlarini ochib beradi balki o'z kariyerasida katta muvaffaqiyatlar va natijalarga erishishiga yordam beradi. Reja asosida bajarilgan har qanday ish o'z samarasini bermay qolmaydi. Tyutor o'z o'quv-ish rejasini bir qator qoida va talablarga tayangan holda tuzishi maqsadga muvofiqdир. Mazkur masalalar asosan quyidagilarni o'z ichiga oladi.

1. Birinchi kurs talabalarini mavjud shart-sharoitga ko'niktirish, moslashtirish jarayonini samarali tashkil etish bo'yicha;
2. OTM talabalarining ma'lumotlar bazasini yaratish bo'yicha;
3. Mamlakatimizning qadimiyligi va boy tarixini o'rganish, yoshlar orasida keng targ`ib etish, ularda milliy g`urur va iftixor tuyg`usini mustahkamlash bo'yicha;
4. Ta'lim jarayonida talabalarning darslari, davomati va dars sifatining monitoringini olib borishi bo'yicha;
5. Ilm-fan, innovatsiya va tadqiqotlar sohasida talabalarni maqsadli yo'naltirish bo'yicha;
6. Talabalarning to'garak va klublarga a'zoligini maksimal darajada ta'minlash va ularning ushbu to'garaklar faoliyatidagi ishtiroki monitoringini yuritish bo'yicha;
7. Pedagogik an'ana va qadriyatlarning uziyilagini ta'minlash, "Ustoz-shogird" tizimi asosidagi ishlarni kuchaytirish bo'yicha;
8. Talabalarning ota-onalarini talabalar hayoti va ta'lim-tarbiya jarayonidagi mavjud muammolari bilan tanishtirish, mazkur muammolarni o'rganish, aniqlash va o'zaro hamkorlik asosida mazkur muammolarni hal qilishga erishish bo'yicha;

²⁹ Tolipov O', Ro'ziyeva D. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat – T.:Innovatsiya – ziyo. Innovatsiya-ziyo, 2019, 276 b.



9. "Yoshlarning ma'naviy-axloqiy holatiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi huquqbuzarlik, giyohvandlik, axloqsizlik kabi muammolarni bartaraf etish bo'yicha;

10. Oila, mahalla, ta'lif muassasasi hamkorligini yanada kuchaytirishga doir tashkiliy-tarbiyaviy ishlarni amalga oshirish bo'yicha;

11. OTMda tahsil olayotgan chin yetimlar, boquvchisini yo'qotganlar, nogironlar, kam ta'minlangan va ko'p bolali oilalar farzandlari to'g'risida ma'lumotlar bazasini shakllantirish bo'yicha.

Tyutorlar uchun 2023-2024-o'quv yiliga mo'ljallangan NAMUNAVIY O'QUV REJASI

No	Tadbirlar nomi	Bajarish muddati
1	<ul style="list-style-type: none"> — talabalarning ijtimoiy-psixologik portretini shakllantirish; — talabalarga ijtimoiy-ma'naviy va psixologik yordam atgan holda o'zini yanada yaxshiroq anglash, o'qish va hayotda i qaror qabul qilish, tanlagan kasbiga muhabbatni oshirish; — "Odob axloq qoidalari" ning mazmun mohiyati bilan barcha talabalarini tanishtirish va OTMning ta'lif-tarbiya jarayonini ga soluvchi qonun-qoidalariга rivoja qilish bo'yicha tushuntirish rini olib borish; — talabaning axloqiy, ma'naviy-ma'rifiy xususiyatlarini va u'dagi shaxsiy ma'lumotlarni yorituvchi yig'ma jild yuritib borish. 	2023/2024-o'quv avomida
2	<ul style="list-style-type: none"> — (TTJ da, ijarada, yaqin qarindoshnikida va shaxsiy donda) yashovchi talabalarning umumiy elektron ma'lumotlar sini shakllantirish; — talabalar turar joylarida, ijarada va xususiy xonadonlarda ovchi talabalarning yashash manzillariga muntazam tashrif rib, u yerda yaratilgan sharoitlarni o'rganib borish va saddilarga taklif kiritish; — xususiy xonadonda va ijarada yashovchi talabalar bilan ga oshiriladigan ma'naviy-ma'rifiy tabdirlar rejasini ishlab chiqish malga oshirish; - bu boradagi ishlarni tashkil etishda mahalla fuqarolar yig'inlari, stka-profilaktika nozirlari bilan hamkorlikni kuchaytirish. 	2023-2024 o'quv yili davomida
3	"Teatr – tarbiya maskani", "Vatan bo`ylab sayohat" shiori ostida lakukanimizning qadimiy va boy tarixini o`rganish, yoshlar orasida targ`ib etish, ularda milliy g`urur va iftixon tuyg`usini ahkamlash maqsadida talablarning madaniy ekskursiyalarini kil etish.	2023-2024 o'quv yili davomida
4	<ul style="list-style-type: none"> — o'quv-tarbiyaviy sohalardagi muammolarini bartaraf etish cha fakultet dekanati bilan hamkorlikda ishlash; - talabaga tavsifnoma va akademik ta'til berish masalasini halda ishtirok etish, talaba haqidagi fakultetda mavjud 	2023-2024 o'quv yili davomida



	<p>umotlardan to'la foydalanish;</p> <ul style="list-style-type: none"> — talabaning darslariga qatnashishi, o'zlashtirish va ijtimoiy tidagi roliga oid takliflarni fakultet dekanatiga kiritish, talabaning atlantirilishi yoki jazolanishi va maxsus stipendiyalarga loyiqligi cha xulosa berish; — o'zlashtirish ko'rsatgichi past hamda tarbiyasi og'ir talabalar tizimli ishlarni olib borish; — Yoshlar ittifoqi boshlang'ich tashkiloti, Kasaba uyushmasi va n sifatini nazorat qilish bo'limi bilan birgalikda talaba bilimini na baholashni nazorat qilish; — talabalarning darslarga qatnashishlari bo'yicha kunlik matini yuritib borish, ular tomonidan sababsiz qoldirilgan dars ng'ulotlari yuzasidan tegishli choralar ko'rish bo'yicha fakultet natiga bildirgi kiritib borish; — talabalarning darslarni o'zlashtirish darajalarini nazorat qilib h, innovatsion ta'lif texnologiyalari va o'quv-uslubiy materiallar, rot-resurslari bilan ta'minlashga hamda ushbu manbalardan keng humli foydalanishga ko'maklashish; 	
5	<ul style="list-style-type: none"> — iste'dodli va iqtidorli talabalarni aniqlash va ularni maqsadli orlash hamda ilmiy to'garaklar, innovatsion startaplarga va arga jalb etish; — iste'dodli va iqtidorli talabalarni aniqlash va ularni respublika xalqaro tanlovlarga maqsadli tayyorlash, iqtidorli talabalarni ekiston Respublikasi Prezidenti va nomdor davlat stipendiyalariga ya etish; — talabalarni turli ilmiy tadbirlar: konferensiylar, seminarlar, publika va xalqaro miqyosdagi olimpiyadalar va forumlarda ishtirok larini uyushtirish; — talabalarning xalqaro grantlar va loyihalarda qatnashishlariga ak berish va rag'batlantirish, ilm-fan hamda tадqiqotlarda faol ok etayotgan talabalarni ta'lif muassasasi rahbariyati va jamoat kilotlari tomonidan rag'batlantirilishini tashkil etish; 	2023-2024 o'quv yili davomida
6	<ul style="list-style-type: none"> — talabalarni darsdan bo'sh vaqtarda besh muhim tashabbus sidagi klub, to'garak va tanlovlarga va innovatsion startaplarga qilish, ularning ta'lif muassasasi hayotidagi ijtimoiy siyosiy va aniy tadbirlardagi ishtirokini ta'minlash; 	2023-2024 o'quv yili davomida
7	<ul style="list-style-type: none"> Pedagogik an'ana va qadriyatlarning uzviyligini ta'minlash, "Ustoz-shogird" tizimi asosidagi ishlarni kuchaytirish, boy kasbiy va taliy tajribaga ega professor-o'qituvchilar ishtirokida ma'naviy-fiy tadbirlar, "Ustoz-shogird" chiqishlari, mahorat darslarini tashkil 	2023-2024 o'quv yili davomida
8	Talabalarning ota-onalarini talabalar hayoti va ta'lif-tarbiya onidagi mavjud muammolari bilan tanishtirish, mazkur	2023-2024 o'quv yili davomida



	mmolarni o'rganish, aniqlash va o'zaro hamkorlik asosida mazkur mmolarni hal qilishga erishish, shuningdek ota-onalar va ustozibbiylar o'rtaida doimiy hamkorlikni ta'minlash maqsadida barcha emik guruhlarda "Ota-onalar kuni" tadbirlarini tashkil etishda ok etish.	
9	"Yoshlarning ma'nnaviy-axloqiy holatiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi qbuzarlik, giyohvandlik, axloqsizlik kabi muammolarni bartaraf ning samarali yo'llari" mavzusida seminar va davra suhbatlari zish	2023-yil sentabr-yil iyun
10	— oila, mahalla, ta'lif muassasasi hamkorligini yanada aytirishga doir uslubiy asoslarni yaratish; - muntazam ravishda talabalarning ota-onasi bilan davra atlari, uchrashuvlar tashkil etish hamda ota-onalarning farzandlar yasidagi o'rni, majburiyati, mas'uliyati va farzandlar bilan o'zaro osabatlarini mustahkamlashga ko'maklashish, ularning ta'lif idagi islohotlar haqida ma'lumotga ega bo'lishlarini ta'minlash;	2023-2024 o'quv yili davomida
11	— moddiy yordamga muhtoj talabalarni aniqlash, ularni ijtimoiy jan qo'llab-quvvatlash bo'yicha fakultet dekaniga taklif kiritish; — shuningdek, ularning ijtimoiy muhofazasi bo'yicha tadbirlarni ga oshirish; — nogironligi bo'lgan, yetim, ota-onsa qaramog'idan mahrum an va kam ta'minlangan talabalarga alohida g'amxo'rlik qilish, a tegishli tartibda ijtimoiy, ma'nnaviy va psixologik yordam berish alarini ko'rish; — kasaba uyushmasi bilan hamkorlikda turli ko'ngilocharga hamda konsertlarga, teatr tomoshalariga tashrifini ta'minlash	2023-2024 o'quv yili davomida

Izoh: *Ushbu rejaga OTM xususiyatidan kelib chiqqan holda qo'shimcha va o'zgartirish kiritish mumkin. Tadbirlar muddatlari nisbiy bo'lib, jarayondagi vaziyatga qarab o'zgartirish kiritib boriladi. OTM rejasini tayyorlash jarayonida talabalar o'rtaida mazkur masalaga doir ijtimoiy so'rovnoma o'tkazish va uning natijasidan foydalanish tavsiya etiladi. Mazkur rejani amalga oshirishda tyutorlar OTMdagi jamoat tashkilotlari, tegishli fakultet va kafedralar mas'ullari bilan hamkorlik qiladi.*

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Tyutor ishining asosiy shakli talaba bilan individual va jamoada ishlash yoki unga ta'lif-tarbiya maslahatchisi bo'lishdan iborat. Tyutorga yetakchilik, tashkilotchilik, tashabbuskorlik, intiluvchanlik, notiqlik mahorati, muloqatga kirishish, zamonaviy axborot-kommunikatsiya va innovatsion pedagogik texnologiyalar bilan ishlash bo'yicha malakaga ega bo'lish, ta'lif-tarbiya jarayoniga doir normativ-huquqiy hujjatlarni bilish kabi bir qator umumiy talablar qo'yiladi.





Ma'lumki, talabalar birinchi bosqichga qabul qilinishi yoki o'qishini ko'chirish orqali kelgani bois, u bilan bog'liq ma'lumotlar bazasi shakllantirilmagan bo'ladi. Har bir tyutor o'ziga biriktirilgan akademik guruhdagi talabalari bilan individual o'tirib, universitet yoki dekanat tomonidan berilgan ma'lumotlar shkalasi, jamlanma shakli bo'yicha talabaning ism-sharifidan tortib toki uning yashash manzili, qiziqishlari, yaqin qarindoshlari, umuman, barcha ma'lumotlarni so'rab, belgilangan ma'lumotlar bazasini to'ldiradi. Bu ishda tyutorning mas'ulligini yanada oshirish ahamiyatli. Chunki, talabaning berilgan ma'lumoti aniqligi, to'g'ri keltirilgani, rasmiylashtirishda xatolikka yo'l qo'yilmasligi e'tiborni kuchaytirishni talab qiladi.

Demak, tyutor - yangi pedagogik texnologiyalar, nazariyalar, konsepsiylar muallifi, tadqiqotchi, foydalanuvchi va targ'ibotchi sifatida namoyon bo'ladi. Tyutor ta'lif muassasasi hududida talabalarning odob-axloq qoidalari va boshqa ichki hujjatlarda belgilangan talablarga mos ravishda bo'lishlarini nazorat qiladi, o'z faoliyatida amaldagi qonun hujjatlari, oliy ta'lif muassasasi ichki tartib va odob-axloq qoidalari hamda ushbu nizomga muvofiq boshqa majburiyatlarni bajaradi.

XULOSA

Tyutor oliy ta'lif muassasasida tarbiya jarayonini tizimli va samarali amalga oshirishning muhim shakli va vositasidir. Qolaversa, tyutolik faoliyati orqali talabalarning shaxsiy rivojlanishiga, ta'lif muassasasi, respublika va xalqaro miqyosdagi tanlov va olimpiadalarda munosib ishtirok etishiga, shuningdek, ularning bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazishiga ko'maklashib, u yigit-qizlarni kasbga yo'naltirish, Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash, turli ilmiy to'garaklarga jalb etish hamda muammo va kamchiliklarini o'rganib, ularga atroflicha yechim topish bilan shug'ullanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Osnovi tyutorstva: kurs leksiy [Elektronniy resurs]: uchebnoye posobiye dlya studentov vissix uchebnix zavedeniy / N. V. Shramko; Ural. gos. ped. un-t. – Elektron. dan. – Yekaterinburg: [b. i.], 2018.
2. Tolipov O', Ro'ziyeva D. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat – T.:Innovatsiya – ziyo. Innovatsiya-ziyo, 2019, 276 b.
3. Wallace, S. & Gravells, J. (2005). Professional Development. Lifelong Learning Sector: Mentoring. Exeter: Learning Matters.
4. O'rinova N.M; Muxammadjonova M.I - "Talimda tyutorlik faoliyatining o'rni va ahamiyatli jihatlari" - Ta'lif innovatsiyasi va integratsiyasi 11-son_8-to'plam_Dekabr-2023



5. O'rinova N,M; Muxammadjonova M.I – “Edge Hill universitetida tyutorlik tizimi xususiyatlari” – Международный научный журнал № 8(100), часть 1 «Научный Фокус» Декабря, 2023

